

Tarixiy rekonstruksiyaning asosiy tamoyillari va uslublari.

Nigora Egamberdiyeva¹

Toshkent Amaliy fanlar universiteti dotsenti, t.f.d.

nigoraegamberdiyeva@utas.uz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10462966>

Kalit soʻzlar: rekonstruksiya, tamoyil, xronologik, analiz, sintez, taksonomik, sinxron, diaxron, kontekstualashtirish, rekonstruktiv, tarixiy empatiya, dialektik tafakkur.

Annotatsiya: Maqolada tarixiy rekonstruksiyaning tarixni obʻektiv tiklashdagi oʻrni va ahamiyati yoritib berilgan. Tarixiy rekonstruksiya turli fanlarning uslublari bilan foydalangan holda va tarixiy tamoyillarga amal qilgan holda amalga oshirish zarurligi koʻrsatilgan. Tarixiy rekonstruksiya tamoyillari aniqlanib, taʼrif berib oʻtilgan. Tarixni obʻektiv tiklash bugungi kun jamiyati va kelajagining rivojlanishida muhim oʻrin kasb etadi. Oʻzbekistonda tarixiy rekonstruksiya boʻyicha olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari bayon qilingan.

1. KIRISH.

Tarix har doim kishilik jamiyatini qiziqitirib, oʻziga jalb qilib kelgan. Tarix bugungi kun uchun tajriba va kelajakni qurish yoʻlidagi asosiy ishonchli tayanchdir. Tarixni obʻektiv va haqqoniy yoritish har bir davrning dolzarb masalasi boʻlib kelgan. Tarix davlatning oʻziga xos siyosiy, mafkuraviy quroli boʻlib, bu orqali jamiyatdagi hukmron davlat oʻz mafkurasini insonlar ongiga singdirishda va ularni maʼlum bir gʻoya ostida birlashtirishda foydalanadi. Bu mafkura bunyodkor mafkura boʻlib, insonlarni yaxshilikka, bunyodkorlikka undasa, bunday jamiyatda rivojlanish va taraqqiyot kuzatiladi, xalqi farovon yashaydi. Aksincha boʻlsa, yaʼni yaratilgan mafkura kimningdir manfaatiga xizmat qilsa, unda u jamiyat insonlarni mutellikka, qashshoqlikka va tobelikka yetaklaydi. Shu sabab ham, jamiyatdagi mavjud voqealikka toʻgʻri baho berish, jamiyatda sogʻlom muhitni yaratishda tarixdan toʻgʻri saboq chiqarish, uni obʻektiv baholash oʻta muhim vazifa sanaladi. Bu ayniqsa, bugungi kunda dolzarbdir, chunki hozirda dunyoda kechayotgan globalizatsiya jarayonida yetakchilik uchun yoki turli maqsadlar uchun inson ongini egallash uchun kurashlar jonlangan [15]. Buning yosh avlodga taʼsiri juda kuchli. Kompyuter texnologiyalarning kirib kelishi, axborot texnologiyalarining rivojlanishi, axborot almashinuvining tezlashuvi, turli mafkura, qarashlar va gʻoyalarning mavjudligi tarbiyaviy masalalarni murakkablashtirmoqda. Bu ayniqsa, maktabda oʻquvchilarni sogʻlom fikrli, intiluvchan va oʻz maqsadiga ega boʻlish kabi masalalarni yechishda toʻsiq boʻlmoqda. Bu jarayonda tarixiy tajribalar, tarixni obʻektiv rekonstruksiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Tarixni rekonstruksiya qilish masalasi kunning dolzarb masalasiga aylangan. Bu borada Oʻzbekistonda bir qator tadqiqot ishlari olib borilgan [1, 9, 10, 13].

3. TAMOYILLAR VA USLUBLARI:

Tarixni rekonstruksiya qilish, yaʼni qayta tiklash maʼlum bir tarixiy davr va mintaqaning moddiy yoki maʼnaviy madaniyatini qayta tiklash jarayoni hisoblanadi. Tarixni rekonstruksiya qilish deganda ikki xil maʼnoda tushunilishi mumkin:

1. Arxeologik va yozma manbalardan foydalangan holda tarix fanining zamonaviy usullaridan foydalanib, mavjud tarixiy maʼlumotlarga asoslanib, nazariy yoki amaliy jihatdan obʻektning tashqi koʻrinishini, qurilishini kompyuter texnologiyalari asosida yoki tarixiy jarayonlarni nazariy jihatdan izchillikda qayta tiklash.
2. Tarixiy voqealar yoki tarixiy davrdagi hayot tarzini turli tadbirlar oʻtkazish asosida jonli ifoda etish va turli moddiy buyumlarni yasash.

Tarixiy rekonstruksiya jarayonlari arxeologiya, etnografiya, sotsiologiya, lingvistika kabi fanlar tomonidan ham amalga oshiriladi. Arxeologiya fanida jamiyatning ijtimoiy tuzumi moddiy manbaga asoslangan holda, etnografiyada qabilalarning maʼlum bir davrdagi urf-odatlarini namoyish qilishda oʻz ifodasini topadi. Informatika sohasida qoʻlga kiritilayotgan yutuqlar, oʻz navbatida tarixni rekonstruksiya qilish jarayonlarini takomillashtirib, tarixni yangi dalillar bilan asoslashga imkon yaratib bermoqda.

Tarixiy rekonstruksiya jarayoni oʻzida yozma manbalardagi maʼlumotlarni, arxeologik, etnografik va boshqa turdagi koʻplab maʼlumotlarning tahlili asosida amalga oshiriladi. Bu jarayonda xronologik, analiz, sintez, taksonomik, sinxron, diaxron kabi koʻplab tarixiy uslublardan keng foydalaniladi. Qadimgi jamiyatni qayta tiklashda tabiiy va ijtimoiy fanlarning yutuqlaridan ham unumli foydalaniladi.

Tarixiy rekonstruksiya jarayonida bir qator tamoyillariga amal qilish lozim. Bular:

1. Tarixiy manbalarni tanqidiy o'rganish tamoyili. Bunda manbaning muhimligi, ishonchligi va asl nusxa ekanligiga e'tibor qaratiladi.

2. Ko'p tarmoqlilik tamoyili, bunda tarixiy jarayonni har tomonlama tushunish va uni umumiy jihatda yoritishda turli fan yutuqlaridan foydalanish muhim.

3. Kontekstualashtirish tamoyili, bunda tarixiy hodisa va jarayonlarni keng va tor kontekstda - ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa jihatlarida ko'rib chiqish lozim.

4. Rekonstruktiv fikrlash tamoyili, bunda mavjud faktlar va dalillar asosida tarixiy voqelikni tiklashda mantiqiy va uslubiy jihatdan qurishni amalga oshirish lozim.

5. Farazni tavsiflash tamoyilida tarixiy rekonstruksiya natijalarini keyingi tadqiqotlar va yangi manbalar bilan tasdiqlanishi mumkin bo'lgan faraz va taxminlar ko'rinishida taqdim etish zarur.

6. Tarixiy empatiya tamoyilida tarixdagi insonlarning fikrlari, qarashlari, his-tuyg'ulari va g'oyalarini tushunish va qayta qurish, shuningdek, voqea va hodisalarni kontekstual idrok etish lozim.

7. Tarixiy kontingentning rivojlanish tamoyilida tarixiy jarayonning rivojlanishida tasodifiy holatlar, kutilmagan hodisalar va mantiqsiz omillarni hisobga olish lozimdir.

8. Dialektik tafakkur tamoyilida turli omillar va qarama-qarshiliklarning o'zaro ta'sirini, shuningdek, tarixning noaniqligi va ko'p qirraliligini anglash lozim.

9. Tarixiy dolzarblik tamoyilida zamonaviy hodisa va jarayonlarni anglashda tarixiy rekonstruksiya natijalaridan foydalanishni bilish lozim.

Tarixiy jarayonlarni qayta tiklashda bundan tashqari boshqa uslub va tamoyillardan foydalanish mumkin. Bunda tadqiqotning aniq maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda belgilanadi. Tarixni har jihatdan mukammal, ob'ektiv rekonstruksiya qilish murakkab jarayon sanaladi. Buni tarixiy tadqiqot uslublarini aniq bilgan va anglagan holda amalga oshirish lozim.

Tarixni rekonstruksiya qilishda quyidagi uslublar qo'llaniladi:

1. Eksperimental uslub. Bu uslubdan arxeologiya, etnografiya, muzeyshunoslik va boshqa maxsus tarixiy fanlarda qo'llaniladi. U o'tmishdagi aniq bir moddiy manba va ma'naviy madaniyatni qayta tiklashga qaratiladi.

2. Anglash uslubi. Bu uslub o'tmish voqea va hodisalarini to'liq bo'lmagan tarixiy ma'lumotlari asosida to'liq tasavvurni tiklash va ularni tushuntirishga qaratilgan.

3. Tarixiy rolli o'yinlarni yaratish uslubi. Bu ayniqsa, tarixiy bayramlarni va jang sahnalarini tashkil qilishda keng qo'llaniladi.

4. Tarixiy buyumlarning maketini yaratish uslubi. Bu uslub arxeologiyada keng qo'llaniladi. Unda turli harbiy qurollar, turar joylarning maketlari, sopol buyumlar va bq. yaratiladi.

3. TAHLIL.

Tarixiy rekonstruksiyaning turli yo'nalishlari mavjud. Ular faoliyat doirasiga va davrlarga asosida ajratiladi:

Faoliyat doirasi asosida	Davrlar asosida
Qilichbozlik	Eng qadimgi davr
Jonli tarix	Qadimgi davr
Maishiy hayot urf-odatlar	Ilk o'rta asrlar
Ovqat pishirish va xizmat ko'rsatish	Rivojlangan o'rta asrlar
Musiq va raqs	Yangi davr
Turli o'yinlar	Birinchi jahon urushi
Musobaqalar	Ikkinchi jahon urushi
Tibbiyot	
Jang sahnalari	

O'tmish tarixini rekonstruksiya qilish birinchi navbatda tarixiy manbalarning o'rganilishi va uning tadqiqot doirasiga bog'liq. Mavjud tarixiy manbalar ob'ektiv ravishda tahlil qilinib, o'zining isboti va daliliga ega bo'lsagina, shuningdek, retrospektiv (o'tmish nazar tashlash) ma'lumotlar bilan ishlashning yondoshuvlari va usullari qanchalik to'g'ri tanlansa, shundagina biz o'tmishni qayta tiklay olamiz. Bu jarayonda o'sha davrda mavjud bo'lgan mafkura, diniy qarashlarni e'tiborga olish ham muhim sanaladi.

O'tmish haqida ma'lumot olishning eng birinchi qadami, bu tarixiy manbadir. Bunda dastlab bu manbani o'rganish lozim. Bunda tarixiy manbaning kim tomonidan yozilganligi, ya'ni voqeaga guvoh bo'lgan odam tomonidanmi yoki ko'chirilgan nusxami yoki ihtibos keltirilganmi degan savollarni aniqlash lozim. Shuningdek, bunda muallifning mazkur voqeaga qarashlari ham muhim sanaladi, chunki muallif voqeaga real baho bermasdan, o'z qarashidan kelib chiqib, ijobiy va salbiy fikr bildirishi ham mumkin.

Tarixni rekonstruksiya qilishda manbalardagi ma'lumotlar yetarli bo'lmaydi. Misol tariqasida "Avesto" matnlarini keltirsak, bunda uning "Goh" qismlarida berilgan so'zlarning aksariati vaqtlar davomida o'zgarib ketgan. Unda berilgan geografik atamalar va joylarning geografik tasnifi umuman bugungi kun uchun mos emas. Shuningdek, uni qayta yozish jarayonida o'zgarishlar ham kiritilgan. Uni rekonstruksiya qilish uchun esa, bugungi kunga interpretatsiya qilish lozim. Bu esa, tarixchidan ma'lum ko'nikma va malakani talab etadi. "Avesto" dagi jamiyatni qayta tiklash uchun lingvinistik, toponomik va arxeologik tadqiqot ma'lumotlari ham muhimdir.

Tarixni nazariy jihatdan qayta tiklashda birinchi navbatda rekonstruktorning tasavvuri turadi, chunki u tarixiy dalillarni tarixning metodologik uslublari orqali tahlil qiladi va shu orqali tarixni tushuntiradi. Bunda uning dunyoqarashi, bilim darajasi muhim o'rin tutadi. Rekonstruktsiyada uch

jihatga - tarixiy tasvirga, tarixiy dalilga va tarixiy voqealarni bayon qilishga e'tibor qaratiladi.

O'rta Osiyoda tarixni rekonstruksiya qilish jarayonlari XX asrning 30 yillaridan boshlangan. Bu o'lkada olib borilayotgan arxeologik tadqiqot ishlari bilan bog'liq bo'lgan. Arxeologik tadqiqot ishlari va yozma manbalardagi ma'lumotlarni taqqoslash orqali tarixiy rekonstruksiya ishlarini olib borishgan. Xorazm arxeologik – etnografik ekspeditsiyasi rahbari S.P.Tolstov tarixni rekonstruksiya qilishda arxeologik ma'lumotlar bilan bir qatorda etnografik ma'lumotlar ham muhim rol o'ynashini ta'kidlangan. V.M.Masson arxeologiyada tarixiy rekonstruksiya masalalarini metodologik uslublarini ko'rsatib beradi [12]. U arxeologik materiallar asosida tarixiy jarayonlarni yoritish masalalariga e'tiborni qaratadi. Arxeologik manbalar asosida madaniy taraqqiyot va ijtimoiy turmush tarzini ochib beradi. A.V.Vinogradov tabiiy sharoit, lanshaft, hayvonot va o'simlik qoldiqlarini o'rganish orqali neolit davri odamlarining turmush tarzini rekonstruksiya qilishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatib beradi. Bunda paleozoologiya, paleobotanika fanlari tadqiqotlaridan foydalanish muhimligini ko'rsatadi.

XX asrning 50 -yillarida Xorazm arxeologik ekspeditsiyasi Janubiy Orolbo'yi hududlarining o'zlashtirilishi o'rganish orqali hududning paleogidrografiya va paleoekologiya rekonstruksiya mavzulariga oid muhim ilmiy ma'lumotlar fanga tatbiq etildi. Ya.G'.G'ulomov va B.V.Andrianovning ilmiy tadqiqotlarida qadimgi Xorazmning sug'orish tizimining shakllanishi va rivojlanishi masalalarini o'rganish orqali ular nazariy jihatdan qayta tiklangan [17,2]. M.G.Vorob'eva Xorazmning antik davrga oid terrakotalari, ostodonlari va suvdonlardagi bo'rtma tasvirlarni tadqiq qilish orqali qadimgi xorazmliklarning diniy e'tiqodi bilan bog'liq bo'lgan jihatlarini rekonstruksiya qilishga muvaffaq bo'lgan [3].

XX asrning 80- yillarida I.V.Pyankov yozma manbalarni keng tahlil qilish orqali Zardushtning yashagan davri va makonini nazariy jihatdan tarixiy rekonstruksiya yaratgan. Shuningdek, O'rta Osiyoning qadimgi davrdagi o'troq aholisining ijtimoiy jamiyatini rekonstruksiya qilgan.

Arxeologik tadqiqotlar natijasida topilgan topilmalar aholining turmush tarzi xususiyatlarini, xo'jaligini, uy-ro'zg'or buyumlari, mehnat qurollari haqidagi nazariy qarashlarni isbotlashda o'rni muhim hisoblanadi. XX asrda O'zbekistonda olib borilgan tarixiy rekonstruksiya masalalari ko'pincha arxeologiya sohasi bilan bog'liq holda olib borilgan. Arxeologik manbalar yoki turar joylarning rekonstruksiya nazariy jihatdan ishlab chiqilgan. Shuningdek, rekonstruksiya qilingan qal'alar yoki topilmalarning faqat chizmalari ishlangan. Bunga misol qilib, Zamonbobo madaniyatiga oid chaylani keltirish mumkin.

O'zbekistonda qadimiy bayram-Navro'z tadbirlarini o'tkazishda milliy urf-odat, ashula va raqslarni teatrlashtirilgan sahnalarda qayta tiklaydilar. Turli tadbirlar va bayramlarni o'tkazishda qo'llanilgan

teatrlashtirilgan sahnalar ham tarixni rekonstruksiya qilishning yana bir o'ziga xos yo'nalishi hisoblanadi.

2019 yilda Toshkent shahrining markazida "Navruz" nomidagi etnografik park tashkil etildi. U 2,5 gektardan iborat bo'lib, bu yerda O'zbekistonning barcha hududlaridagi tarixiy binolarning kichiklashtirilgan nusxalari, ya'ni maketi yasalgan. Bu yerda Registon maydoni, Oq-saroy, Xudayorxon o'rdasi, Xiva arki, Kalta minor kabi me'moriy obidalar qurilgan. Har bir viloyatning aholi turar joylarining ham maketi yasali, ko'chalari shakllantirilgan. Tarixiy rekonstruksiyaning bunday turi ham tarixning mohiyatini anglashda, yoshlarning ma'naviyatini rivojlantirishda ahamiyati katta hisoblanadi. O'lkada turizm sohasini rivojlantirishda ham o'z o'rniga ega. Tarixiy rekonstruksiyaning bunday turida tarixchilar me'morlar va quruvchilar bilan hamkorlikda ishlashiga to'g'ri keladi.



Toshkent shahri. "Navruz" etnopark. Umumiy ko'rinishi



"Navruz" etnopark. Rekonstruksiya.Xiva. Ichon qal'a.



"Navruz" etnopark. Rekonstruksiya.Qo'qon. O'rda.



"Navruz" etnopark. Rekonstruksiya. Samarqand.

Mustaqillik yillarida E.V.Rtveladze, V.N.Yagodin, M.Mambetullaev, G'.Xodjaniyazov, B.I.Vaynberg, S.B.Bolelov, S.R.Baratovlarning arxeologik tadqiqot ishlari tarixiy rekonstruksiya masalalari bilan bog'liq holda olib bo'rilgan. Bu davrning muhim xususiyati tarixiy rekonstruksiya masalalarining kompyuter texnologiyalari yutuqlari bilan bog'langan holda olib borilishi bo'lgan. Bu davrda qal'alarning va turli arxeologik topilmalarning virtual varianti va 3D formatini yaratila boshlanadi. AutoCAD dasturining yaratilishi va uning takomillashuvi natijasida me'moriy obidalarni, qadimiy yodgorliklarni uch o'lchamli yaratish imkoni paydo bo'ladi.

2013 yilda Qorakalpog'iston Respublikasi Beruniy tumanida joylashgan Oqchaxonqal'a yodgorligi XX asrning oxirlari va XXI asrning boshlarida olib borilgan tadqiqot ishlari natijasida uning tashqi ko'rinishi 3D formatda qayta tiklangan. Unda shaharning bugungi kundagi ko'rinishi bilan uning 3D formatdagi ko'rinishi solishtirilgan holda ishlangan.

Oqshaxonqal'a mil.avv. IV asrda bunyod etilgan. Shahar Qorakalpog'istonning Beruniy tumani hududida, Sulton Uvays tog' tizmalaridan 15 km janubda joylashgan. Bu yerda 1995 yildan beri "Qorakalpog'iston-Avstraliya" xalqaro arxeologik ekspeditsiyasi o'z faoliyatini olib bormoqda. Oqshaxonqal'aning umumiy maydoni 56 gektarni tashkil etib, ichki va tashqi qal'adan iborat. Ichki va tashqi qal'alarning har biri alohida mudofaa devorlari bilan o'ralgan. Har bir qal'aning mudofaasiga alohida e'tibor qaratilgan. Shahriston xandak va proteyxizma bilan mudofaalangan. Ikki qator mudofaa devori qurilgan. Tashqi mudofaa devor qalinligi 1,7 metr, ikkinchi devor qalinligi 2,1 metr bo'lib, otish yo'laginging kengligi 2,3 metr bo'lgan. Qal'a burchaklarida kvadrat, devor bo'ylab to'g'ri to'rtburchak shakldagi burjlar har 23–30 metrdan qo'yilgan. Shaxmat tarzda nayzasimon shinaklar qo'yilgan. Shahristonning shimoliy qismida yuqori shahar-ark bunyod etilgan. U ham ikki qator mudofaa devori va proteyxizma bilan himoyalangan. Tashqi devor qalinligi 2,60 metr, ikkinchi devor 2,50 metr, yo'lakning eni 3 metrni tashkil qilgan [18]. Arkning mudofaa devori 3 qavatli qilib qurilgan, yuqori qavati ochiq bo'lgan. Uning to'rtta darvozasi bo'lib, ular har bir tomonning o'rtasida qurilgan. Adashtirma yo'l va burjlar bilan himoyalangan. Shahristonning mudofaa devori tadqiqotchilar fikricha, milodiy I asrda qayta qurilgan.

Ichki qal'aning markazida baland otashkada qurilgan, unga pandus orqali chiqilgan. U yerda mangu olov yonib turgan. Ichki qal'aning shimoli-g'arbiy qismida saroy-ibodatxona topilgan. Ibadatxonadan o'tgan yo'lak devorlariga devoriy suratlar chizilgan. Tadqiqotchilar bu yo'lakning umumiy uzunligi 240 metr ekanligini qayd qilishgan. Bugungi kungacha uning 60 metrida tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

2005–2008 yillardagi arxeologik tadqiqotlar natijasida, shimoliy yo'lakdan 30 nafar kishining portretlari topilgan. Suratlar yaxshi saqlanmagan. Ular uyum holda topilgan, ya'ni kimlardir ularni devordan sidirib tashlagan. Bugungi kunda tadqiqotchilar shu "uyum"larni va devorda saqlanib qolgan rasmlarni tadqiq qilishmoqda. Devordagi suratlar ostida qadimiy yozuv aniqlangan. Lekin hozirgacha uning matni e'lon qilinmagan. Portretlarning birida tojida qush aks ettirilgan Xorazm podshosi tasvirlangan. Har bir portret individual yondoshgan holda chizilgan. Suratlardagi tasvirlar soqolsiz, ko'plarining boshida toj bo'lib, ensa qismida diadema bilan tarang bog'langan. Tadqiqotchilar tomonidan o'tkazilgan radiokarbon analizi natijasida suratlar mil.avv. II asrning oxiri I asrning boshlariga oid ekanligi aniqlangan. Qal'a markazidagi shimoliy yo'lakdan olti metr hajmdagi uchta zardushtiylik ma'budalarining, bog' va qushlarning rasmi topilgan.

Oqshaxonqal'adan topilgan devoriy suratlar Markaziy Osiyo tarixi bo'yicha eng qadimiy rangli devoriy surat hisoblanadi. Yodgorlikning to'liq o'rganilishi xalqimizni boy tarixi bilan yanada yaqindan tanishtirishga imkon beradi.

Shaharning ikki qismga bo'linganligi, mudofaa tizimi, yuz ustunli zali, ibodatxona va uning uzun yo'lagidan topilgan devoriy suratlari rekonstruksiya qilingan. Bunda arxeolog olimlar V.N.Yagodin, G'.Xodjaniyazov, A.Betts, M.Mambetullaevlarning tadqiqot ishlari muhim ahamiyat kasb etgan.



Oqchaxon qal'a. Tadqiqotdan oldingi ko'rinishi.




Oqchaxon qal'a. Rekonstruksiya. Umumiy ko'rinishi.



Oqchaxon qal'a. Rekonstruksiya. Ibadatxona.



Oqchaxon qal'a. Ibadatxonadan topilgan Xorazmshoh portreti.



Oqchaxon qal'a. Ibadatxonadan topilgan otlar korteji.

Akademik E.V.Rtveladzening Surxondaryo viloyati Muzrabod tumani joylashgan Kampirtepa yodgorligida olib borilgan tadqiqot ishlari natijasida mazkur yodgorlikning Aleksandr Makedonskiy tomonidan qurilgan "Oks bo'yidagi Aleksandriya" shahri ekanligini isbotlab bergan [11].

Kampirtepa yodgorligi mil.avv. IV asrning oxirlari – milodiy II asrning o'rtalariga shimoliy Baqtriya hududidagi yirik shaharlardan biri bo'lgan. Yodgorlik dastlab 1972 yilda akademik E.V.Rtveladze boshchiligidagi arxeologik ekspeditsiya tomonidan o'rganilgan.

Kampirtepa qirg'oq bo'ylab g'arbdan sharqqa tomon 400 metr uzunlikda joylashgan, 5 gektar hududni egallagan. Qal'a ikki qismdan ark va quyi shahardan iborat. Ark 5 metr kenglikdagi mudofaa devori va xandak bilan mudofaalangan. Kampirtepani qazish vaqtida ko'chalar, ibodatxona, shahar hazinasi, hunarmandchilik ustaxonalari topilgan. Shahar arki darvozasiga yaqin joydan budda ibodatxonasi topilgan. Shahardan zardushtiylik, buddaviylik va mahalliy diniy e'tiqodlarga oid ibodatxonalar topilgan.

XXI asrning dastlabki 10 yilligida olib borilgan arxeologik tadqiqot ishlari natijasida yodgorlik dastlab yunonlarning frurioni, ya'ni mudofaa punkti yoki port vazifasini bajaruvchi shahar sifatida vujudga kelganligi asoslandi. Bu yerdan kemalar uchun qulay ko'rfaz, pristan va port mayog'ining izlarini aniqlashgan. Kampirtepaning eng rivojlangan davri milodiy I–II asrlarga to'g'ri keladi. Kushonlar davrida shahar yanada taraqqiy qilib, asosiy savdo ishlari bilan bog'liq bo'xona vazifasini bajargan va suv yo'llarini nazoratini olib borgan.

2019 yilda turizm vazirligi tomonidan Kampirtepa yodgorligining vertual varianti yaratildi. Uning uch o'lchamli ko'rinishida qal'alarning tepadan, yon tomonidan va ichkaridan ko'rinishlari, tevarak atrofi, qal'a ko'rilgan tepalik aniq 3D formatda tasvirlangan. Uning mudofaa devorlari, uy-joylari, ko'chalari, ko'rfaz, mayyoq, jangchilar, qal'aga kelgan kemalar aks ettirilgan.



Kampirtepa. Bugungi kunda saqlanish holati.



Kampirtepa. Mudofaa devorining rekonstruksiya.



Kampirtepa. Rekonstruksiya.

Hozirgi kunda nazariy jihatdan tiklangan rekonstruksiyaning vertual variantlarini yaratish dolzarb masalaga aylangan. Ularni yaratishda tarixchi kompyuter sohasi vakillarining xizmatidan foydalanishga majbur, chunki kun sayin takomillashib kelayotgan bu sohani tarixchilarning o'zlashtirib olishi murakkab hisoblanadi. Lekin masalaning yana bir tomoni ham borki, ya'ni kompyuter sohasi mutaxassisi tarixiy rivojlanish xususiyatlarini, o'ziga xos tomonlarini anglashi murakkab. Shu jihatdan olib qaralganda, bugungi kunda tarixchining axborot texnologiyalari sohasini o'zlashtirishi muhim sanaladi.

Hozirda yosh tarixchi tadqiqotchilar orasida informatika sohasini yaxshi o'zlashtirib, uni tarixiy tadqiqotlar bilan bog'lab olib borayotganlar soni oshib bormoqda. 2021 yil davomida O'zbekiston Milliy universiteti tadqiqotchisi J.E.Tog'ayev "Bronza va ilk temir davri tarixiy rekonstruksiya masalalari (janubiy O'zbekiston misolida)" mavzusida [13], Urganch davlat universiteti tadqiqotchisi X.O.Matkarimov

“Xorazm vohasida arxeologik tadqiqotlar tarixi (qadimgi davrga oid tarixiy rekonstruksiya muammolari)” mavzusida tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) [9] dissertatsiyasini himoya qilganlar.

Tarixni rekonstruksiya qilishning turli yo'nalishlari bo'lsa-da, bugungi kunda uning axborot texnologiyalari asosida qayta tiklanishi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu soha xorijiy davlatlarda keng miqyosda taraqqiy etib boshlagan bo'lsa-da, uning muammoli tomonlari mavjud. Uch o'lchamli tarzda qayta tiklangan maketlarni gologramma (fazoviy tasvirni hosil qilish uslubi) asosida ko'rinishlarini yaratishmoqda. Bu esa, tarixiy davrlarni ham “jonlantirish”ga imkon beradi.

4 XULOSA:

Qadimgi davr ijtimoiy hayotini tarixiy jihatdan rekonstruksiya qilishda tarixiy, arxeologik, tilshunoslik va boshqa fanlarning ma'lumotlarini kompleks yondashgan holda tahlil etish zarur [5]. Bunda birinchi navbatda hududdan topilgan yozma manbalarni o'rganish, o'qish va sharhlash kerak. Matnda berilgan ma'lumotlar tarix bilan bog'liq voqea va hodisalarni yoritish imkonini beradi. Arxeologik, etnografik manbalar bilan asoslash uslubida ijtimoiy turmush tarzi haqidagi mavjud ma'lumotlar moddiy va etnografik ma'lumotlar bilan yuqorida ko'rsatilgan tamoiylar asosida qiyosiy solishtiriladi. Shu asosda qadimgi davrning ijtimoiy turmush tarzini qayta tiklash imkonini yaratiladi. Shu bilan birga lingvistik rekonstruksiya uslubida ham qadimiy sivilizatsiyaning tili, madaniyati va tarixini o'rganish imkonini beradi. Bunda bilan qadimgi tillar lug'ati, alifbosi, fonetikasi, shevalari va boshqa tillar bilan aloqasini qayta tiklash mumkin. Shu asosda bugungi kungacha shu tilning yoki so'zlarning qay tarzda yetib kelganligini ham ko'rsatish mumkin.

Hozirgi kunda nazariy jihatdan tiklangan rekonstruksiyaning virtual variantlarini yaratish dolzarb masalaga aylangan. Ularni yaratishda tarixchi kompyuter sohasi vakillarining xizmatidan foydalanishga majbur, chunki kun sayintakomillashib kelayotgan bu sohani tarixchilarning o'zlashtirib olishi murakkab hisoblanadi. Lekin masalaning yana bir tomoni ham borki, ya'ni kompyuter sohasi mutaxassisi tarixiy rivojlanish xususiyatlarini, o'ziga xos tomonlarini anglashi murakkab. Shu jihatdan olib qaralganda, bugungi kunda tarixchining axborot texnologiyalari sohasini o'zlashtirishi muhim sanaladi.

Bugungi kunda kompyuter texnologiyalari kirib kelmagan sohani topish mushkul. Jamiyatimizga kompyuterning kirib kelganiga uncha uzoq vaqt bo'lmagan bo'lsa-da, usiz hayotni tasavvur qilish murakkab. Kompyuter texnologiyalari axborot almashinuvini tezlashtirishi bilan birga har bir fan sohasida tub ma'noda katta o'zgarishlarga olib keldi va kelmoqda. Tarix fanini o'qitish va tadqiq qilishda ham informasion texnologiyalarning qo'llanilishi

natijasida uning tarmoqlari va tadqiqot sohalari kengayib, murakkablashib bormoqda. Informasion texnologiyalar yordamida tarixni o'rgatish, o'rganish, tadqiq qilish, namoyish qilish, saqlash, ommalashtirish, targ'ib qilish keng ommalashib bormoqda.

Tarixiy rekonstruksiya uslubidan tarixni tadqiq qilish va o'rganishda foydalanish katta samara beradi. Unda tarixning o'rganilmagan tomonini ko'rish mumkin, tahlil orqali ob'ektiv yoritish imkoniga ega bo'lamiz. Bu esa, jamiyat rivojlanishining asosini ko'rsatib, kelajagini bashorat qilish yo'llarini aniqlaydi.

Tarixni rekonstruksiya qilishning turli yo'nalishlari bo'lsa-da, bugungi kunda uning axborot texnologiyalari asosida qayta tiklanishi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu soha xorijiy davlatlarda keng miqyosda taraqqiy etib boshlagan bo'lsa-da, uning muammoli tomonlari mavjud. Uch o'lchamli tarzda qayta tiklangan maketlarni gologramma (fazoviy tasvirni hosil qilish uslubi) asosida ko'rinishlarini yaratishmoqda. Bu esa, tarixiy davrlarni ham “jonlantirish”ga imkon beradi.

ADABITYOLAR:

- [1] Абдуллаев Ў.И. Ўрта Осиёда ибтидоий жамоа тузуми ва илк давлатчилик тарихи. Тарих фанлари доктори (DSc) диссертацияси. – Тошкент. 2019.
- [2] Андрианов Б.В. Древние оросельные системы Приаралья (в связи с историей возникновения и развития орошаемого земледелия). – Москва: Наука, 1969.
- [3] Воробьева М.Г. Керамика Хорезма античного периода. // Керамика Хорезма. Труды ХАЭЭ. Вып. IV. – Москва: Изд-во АН СССР, 1959. – С. 45–220.
- [4] Мавлонов Ў. Марказий Осиёнинг қадимги йўллари. – Тошкент: Академия, 2008.
- [5] Мамбетуллаев М.М., Ходжаниязов Г. Раскопки городища Айбуйир кала. // АО. 1977. – Москва: 1978.
- [6] Мамбетуллаев М. Хумбузтепе – керамический центр южного Хорезма. // Археология Приаралья. Вып. II. – Ташкент. 1984.
- [7] Массон В.М. Исторические реконструкции в археологии. – Фрунзе. Илим. 1990.
- [8] Массон В.М. Культурогенез древней Центральной Азии. – СПб: СПбГУ, 2006.
- [9] Маткаримов Х.О. Хоразм воҳасида археологик тадқиқотлар тарихи (қадимги даврга оид тарихий реконструкция муаммолари) Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс.автореф. – Нукус, 2021.
- [10] Матякубов Ҳ. Хоразм воҳаси бронза асри ва илк темир даври тарихи (маданият, ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий

- муносабатлар муаммолари). –Тошкент. 2017.
- [11] Ртвеладзе Э.В. Кампыртепа – Александрия Оксианская: город – крепость на берегу Окса в эллинистическое и постэллинистическое время (конец IV в. до н.э. – I в. до н.э.) – Ташкент: Изд-во журнала “San`at”, 2017.
- [12] Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. – Москва: Наука, 1962. – 324.
- [13] Тоғасев Ж.Э. Бронза ва илк темир даври тарихий реконструкция масалалари (жанубий Ўзбекистон мисолида). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс.автореф. –Тошкент, 2021.
- [14] Egamberdieva N.A. Amudaryo havzasi hududlarining qadimgi madaniyati (mil.avv. VIII-mil. IV asrlar).– Toshkent. 2020.
- [15] Эгамбердиева Н. Қадимги даврнинг тарихий реконструкцияси масалалари. Значение цифровых технологий в изучении истории Узбекистана, 1(01), 14–19. <https://doi.org/10.47689/v1i01.13304>
- [16] Ходжаниязов Ғ. Қадимги Хоразм муҳофаа иншоотлари. – Тошкент: O`zbekiston, 2007.
- [17] Ғуломов Я.Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихи (қадимги замонлардан ҳозиргача). – Тошкент: Фан, 1959.
- [18] Ходжаниязов Ғ. Қадимги Хоразм муҳофаа иншоотлари. – Тошкент: O`zbekiston, 2007. -Б.34.